https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Raximbayeva Shodiya Batirovna
o'qituvchi, TTA Urganch filiali, Urganch
ORCID ID: 0009-0003-6938-4604

TIBBIY ATAMALARDA OT YASALISHINING MORFOLOGIK MODELLARI VA ULARNI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada lotin tilidagi tibbiy terminlarning ot yasalishidagi morfologik modellar tahlil qilinadi hamda ularni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar yoritiladi. Shuningdek, tarjimada ilmiy aniqlik va terminologik moslikni ta’minlash, morfologik moslashtirish, qisqartmalarni to‘g‘ri izohlash kabi masalalarga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: lotin tili, tibbiy terminlar, morfologik model, ot yasalishi, tarjima muammolari, o‘zbek tili, lingvistik tahlil, terminologiya, ilmiy tarjima

Аннотация: В данной статье анализируются морфологические модели образования имен существительных медицинских терминов на латинском языке и освещаются проблемы, возникающие в процессе их перевода на узбекский язык. Особое внимание уделяется также таким вопросам, как обеспечение научной точности и терминологической согласованности при переводе, морфологическая адаптация, правильная интерпретация сокращений.

Ключевые слова: латынь, медицинские термины, морфологическая модель, образование существительного, проблемы перевода, узбекский язык, лингвистический анализ, терминология, научный перевод.

Abstract: This article analyzes morphological models in the formation of nouns of medical terms in Latin and highlights the problems that arise in the process of translating them into Uzbek. Special attention is also paid to issues such

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

as ensuring scientific accuracy and terminological consistency in translation, morphological adaptation, and correct interpretation of abbreviations.

Keywords: Latin, medical terms, morphological model, noun formation, translation problems, Uzbek language, linguistic analysis, terminology, scientific translation

KIRISH: Dunyoda mavjud tillarning tarkibida koʻpgina lotin va yunon tillariga oid soʻzlarni koʻplab uchratishimiz mumkin. Hozirgi zamon tibbiy atamashunosligi tom maʻnoda keng va murakkab atamalar tizimi hisoblanib, bir necha yuz ming soʻz va soʻz birikmalarini oʻz ichiga oladi. Boshqa tirik tillar singari, lotin tili va tibbiy terminologiya ham foydalanish bilan rivojlanadi. U tarixan rivojlangan turli til darajalari va qoʻllanish sohalarida keng tarqalgan. Tibbiyotda terminologiya tibbiy tilni tartibga soluvchi va aniq belgilangan nomlash tizimini oʻrnatadigan ilmiy tizimdir. Lotin tili xalqaro miqyosda soʻzlashadigan va universal til hisoblangan Yevropa tillaridan birinchisi edi. Bugungi kunda u yoʻq boʻlib ketgan, ammo lotin tili bir vaqtlar qadimgi Rim va Rim imperiyasining qulashigacha - tarixdagi eng qudratli va maftunkor boʻlgan rasmiy tillardan biri edi.

Lotin va yunon tillari tibbiyot sohasiga qadimgi zamonlardan boshlab singib ketgan. Gipokrat (Hippocrates), Galen (Claudius Galenus) kabi qadimgi yunon shifokorlari tomonidan yozilgan asarlar hozirgi zamon tibbiyoti uchun asos boʻlib xizmat qilib kelmoqda. Ularning asarlari dastlab yunon tilida, keyinroq lotinchaga tarjima qilingan. Oʻrta asrlarda esa lotin tili Yevropadagi barcha ilmiy-tibbiy yozuvlarning rasmiy tili boʻlib qolgan.

Tibbiy terminologiya – bu kasalliklar, ularning belgilari, tashxis, davolash va anatomik strukturalarni ifodalovchi ilmiy atamalar tizimidir. Ushbu terminologiyaning asosiy qismini esa lotin va qadimgi yunon tillaridan kelib chiqqan atamalar tashkil etadi. Ushbu ikki til, nafaqat tarixan, balki bugungi kunda ham global ilm-fan, ayniqsa, tibbiyot tilining asosiy suyak poydevoridir. Lotin tili qadimdan fan tili boʻlib xizmat qilib kelmoqda. Xususan, tibbiyot sohasi terminologiyasi lotin va yunon tillari asosida shakllangan boʻlib, bu terminlar

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

asrlar davomida rivojlanib, bugungi global ilmiy hamjamiyatda qo‘llanilayotgan universal leksik qatlamga aylangan. Tibbiy atamalarni to‘g‘ri tushunish va tarjima qilish tibbiyot sohasida nafaqat kommunikativ, balki diaqnostik va ta’limiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda o‘zbek tili tibbiy ta’lim va ilm-fan tiliga aylanish yo‘lida rivojlanayotganligi bois, ushbu terminlarni tarjima qilishdagi muammolar, xususan morfologik model va semantik aniqlik masalasi dolzarb sanaladi.

Ushbu maqola lotin tilidagi tibbiy otlarning qanday morfologik modellarga asoslanib shakllanishini aniqlash, ularni o‘zbek tiliga tarjima qilishda duch kelinayotgan asosiy lingvistik muammolarni tahlil qilish va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

MATERIALLAR VA USULLAR: Tadqiqot deskriptiv-lingvistik va komparativ tahlil metodlariga asoslanadi. Lotin tilidagi tibbiy atamalar tahlil qilinib, ularning morfologik strukturasi – ya’ni ildiz, affiks (suffiks va prefiks), kompozitsion birliklar aniqlanadi. O‘zbek tili tibbiy adabiyotlari (o‘quv qo‘llanmalari, tarjima lug‘atlar, darsliklar) bilan solishtirma tahlil o‘tkaziladi. Shuningdek, semantik tahlil orqali atamalarning tarjima jarayonida yuzaga kelayotgan ma’no noaniqliklari va mos kelmasliklari aniqlanadi. Tibbiy matnlarni tarjima qilish jarayonida bir qator xatoliklarga yo‘l qo‘yilishi kuzatiladi. Bu xatoliklar ko‘pincha leksik-semantik noaniqlik, kontekstga e’tibor bermaslik, terminologik noto‘g‘rilik yoki morfologik nomuvofiqlikdan kelib chiqadi.

Tadqiqot lingvistik va tarjimashunoslikka oid tahlil metodlariga tayangan holda olib borildi. Asosiy e’tibor tibbiy terminlarning morfologik tuzilmasi va ularning o‘zbek tilidagi tarjimalarida kuzatiladigan lingvistik muammolarni aniqlashga qaratildi. Quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi:
Deskriptiv-lingvistik tahlil ya’ni lotin tilidagi tibbiy terminlar tarkibi morfemalar (ildiz, prefiks, suffiks) asosida tahlil qilindi. Har bir termin morfologik birliklarga ajratilib, ular orqali ot yasalishining modellari aniqlashtirildi. Komparativ (qiyosiy) tahlil Lotin tilidagi terminlar o‘zbek tilidagi muqobillari bilan solishtirilib, tarjima

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

jarayonida yuzaga kelgan semantik tafovutlar va terminologik nomuvofiqliklar o'rganildi; Semantik tahlil erminlar tarjimasida semantik noaniqlik va ko'pma'nolilik holatlari o'rganildi. Ilmiy-adabiy manbalarni tahlil qilish orqali o'rganildi.

NATIJALAR : Lotincha ot yasovchi morfologik modellarning turlari. Suffiksal model: Lotincha atamalarning katta qismi turli suffiks (so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar) yordamida hosil qilingan. Ular quyidagicha guruhlanadi:

Suffiks	Ma'nosi	Misol	O'zbekchasi
-itis	Yallig'lanish	gastritis	oshqozon yallig'lanishi
-oma	O'sma	melanoma	teri o'smasi
-algia	Og'riq	neuralgia	asab og'rig'i
-osis	Kasallik holati	nephrosis	buyrak faoliyati buzilishi
-emia	Qondagi holat	anemia	qon kamligi

Prefiksal model: Prefikslar terminning semantikasini o'zgartiradi:

Prefiks	Ma'nosi	Misol	Tarjimasi
hyper-	ortiqcha	hypertension	yuqori qon bosimi
hypo-	yetishmovchilik	hypoglycemia	qonda glyukoza kamayishi
tachy-	tezlik	tachycardia	yurak urishining tezlashuvi
brady-	sekinlik	bradykinesia	harakatning sekinligi

Kompozitsion model: Ikkita yoki undan ortiq morfema birlashuvi orqali: gastroenterologia = gastro- (oshqozon) + entero- (ichak) + logia (fan) → oshqozon-ichak tizimi haqidagi fan; otorhinoloringologia = oto (quloq) + rhino (burun) + loringo (tomoq) → quloq burun tomoqni o'rganadigan fan

Tibbiy atamalar lotin va yunon tilida bo'lgani uchun ularni o'zbe tiliga tarjima qilishda o'ziga yarasha bir qancha muammolarga duch kelinadi.

- Leksik-semantik noaniqlik - Ko'p hollarda bitta atama bir nechta o'zbekcha tarjimaga ega: diabetes mellitus — "qandli diabet", "shakarli diabet", "diabet kasalligi"; myocardial infarction — "yurak infarkti", "miokard

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

infarkti", "yurak mushagi shikasti" bu holatlar atamaning to‘g‘ri semantik sohasini aniqlashda chalkashlik tug‘diradi.

- Morfologik nomuvofiqlik. Lotin tilidagi atamalar fonetik jihatdan o‘zbekcha talaffuz va yozuvga to‘g‘ri kelmaydi. Masalan: appendicitis — "apenditsit"mi yoki "appendiks yallig‘lanishi"mi? bronchitis — "bronxit" yoki "bronx yallig‘lanishi"?
- Konstruktiv moslashuv. Ba'zi atamalar aynan tarjima qilib bo‘lmaydi va izohli shaklda berilishi kerak: osteoporosis — "suyak zichligining kamayishi", lekin aynan klinik holatni bildiruvchi "osteoporoz" shaklini qoldirish lozim bo‘ladi.

MUHOKAMA: Lotincha morfemalarning o‘zbek tiliga tarjima qilinishi murakkab lisoniy muammolarga olib kelmoqda. Har bir morfemaning semantik yukini to‘g‘ri anglash, uni o‘zbek tilining morfologik strukturasi bilan uyg‘unlashtirish ilmiy tahlilni talab qiladi. Tibbiy terminlarning turli tillardagi ifodalanishida ayrim lingvistik o‘ziga xosliklar mavjud. Lotin tilidagi atamalar ko‘pincha rus va ingliz tillarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri transliteratsiya yo‘li bilan qabul qilingan. Ammo o‘zbek tilida ushbu terminlar ko‘pincha izohlab tarjima qilinadi, bu esa terminning ilmiy aniq yo‘lini susaytirishi mumkin. Tarjima jarayonida uslubiy ikkiyoqlamalik (terminologik va ommabop tarjima) muammosi seziladi. Bu esa, ayniqsa, tibbiyot o‘quv yurtlarida ta'lim sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun ikki tomonlama yondashuv zarur:

- lotincha atamalarning lingvistik komponentlarini o‘rganish;
- ularni o‘zbek tilining grammatik va semantik tizimiga moslashtirish.

Xulosa : Tadqiqotdan quyidagi xulosalar chiqarildi: Lotin tilidagi tibbiy otlar aniq morfologik modellarga asoslanadi (suffiks, prefiks, kompozitsiya).

Ularni o‘zbek tiliga tarjima qilishda lisoniy nomuvofiqliklar, semantik xatolar va izoh talab qiluvchi hollar mavjud.

Lotincha ildizli terminlarning global ilm-fan tarmog‘ida birxilligi saqlanmog‘i zarur, chunki ularning noto‘g‘ri o‘zlashtirilishi ilmiy tafakkurni chalkashtirishi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

mumkin. O‘zbek tilida ko‘pincha atamalar izohlab tarjima qilinadi, bu o‘quvchilarga tushunarlilik baxsh etsa-da, ilmiylik darajasini pasaytirishi mumkin. Shu bois, ikkita paralel yondashuv maqsadga muvofiq: terminni asl shaklda keltirish; zarur bo‘lsa, qisqacha izoh bilan to‘ldirish. Tarjima jarayonida standart terminologik lug‘atlar, ikki tilda mos ma’nosi o’zgarmaydigan atamalar majmuasi yaratilishi lozim. Tarjimon va mutaxassislar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, terminologik muvofiqlashtirishni yo‘lga qo‘yish zarur.

Lotin va qadimgi yunon tillari tibbiyotda beqiyos ahamiyatga ega. Ular nafaqat ilmiy an’ananing merosi sifatida, balki hozirgi zamon tibbiy bilimlarining asosiy ifoda vositasi sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun bu tillarni chuqur o‘rganish, ulardagi morfologik va semantik tuzilmalarni anglash, har bir tibbiy mutaxassis uchun zarurat bo‘lib qoladi. Zamonaviy tibbiyotda ingliz tili yetakchi ilmiy til bo‘lsa-da, tibbiy terminlarning 60–70 foizi lotin yoki yunon tilidan olingan. Masalan, ingliz tilidagi hypertension yoki myocardial infarction kabi atamalar aslida yunon-lotin ildizlariga ega. Bundan tashqari, ko‘pgina davlatlarda, jumladan, O‘zbekiston tibbiy ta’lim tizimida ham lotin tili o‘rganilishi majburiy dars sifatida o‘qitiladi. Bu talabalar va shifokorlarga terminologik savodxonlikni oshirishda, ilmiy maqolalarni o‘qish va yozishda katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ахмедов С. (2020). Лотин тили ва тиббий терминология. Тошкент: «Мехр-Нури».
2. Dasturiy lug‘at: Latin Medical Terminology for Students, Cambridge University Press, 2019.
3. Eshbayeva, N. (2023). “Features of the Transfer of Meanings of Latin and Greek Medical Terms into Russian and Uzbek Languages”. Academia Science Repository. https://academiascience.com
4. Movlanova, R. (2025). “Typological Problems of Medical Texts and Terms from English into Uzbek”. World Bulletin of Social Sciences.
5. Esanova, M. (2025). “Expression of the Clinical Meaning of Latin Medical Terms in English and Uzbek”. Acta NUUz.